

Muhammadjonova Mohinur
Farg‘ona davlat universiteti
San‘atshunoslik fakulteti
“Musiqqa ta‘limi” yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI TAKOMILLASHUV JARAYONLARI **(chang cholg‘usi misolida)**

Annotatsiya: O‘zbek xalq cholg‘ularini takomillashuv jarayonlari chang cholg‘usi misolida ko‘rib chiqiladi. Chang cholg‘usining tarixiy va tadrijiy rivojlanish bosqichlari, milliy musiqa ijrochiligidagi o‘rni va ijrochilik masalalari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Chang, musiqa, tarix, chalg‘u, takomillashuv, soz, tor, parda, maqom, sado.

Chang paxlaviy va forsiy tillarga mansub atama bo‘lib, u asrlar davomida bir necha ma‘nolarni anglatgan. Dastlab, maishiy hayotda “chang” so‘zi ostida “gard, to‘zon” tushunilgan (bugungi kunda bu tushuncha saqlanib qolingan). To‘zon deganda tasavvurimizda shamol natijasida hosil bo‘lgan aylana, shoxlari egilgan daraxtlar, qaddi bukilgan o‘t-o‘lanlar gavdalanadi ya‘ni, egik shaklda bo‘lgan ko‘rinish namoyon bo‘ladi. Keyinchalik “chang – hayvonlar panjasi, changak, qushlarning tirnog‘i, changallamoq, yovvoyi hayvonlar o‘z o‘ljasini changallashi” kabi ma‘nolarda qo‘llanilgan. Hatto odam qo‘l barmoqlarining tabiiy holati ham egik ko‘rinishdadir. Misollardan ko‘rinib turganidek, “chang” tushunchasi mazmunan har xil (to‘zon, qushlar tirnog‘i, qo‘l barmoqlari va h.k.), shaklan bir xil (egri, egik) ma‘nolarni anglatgan. Bora-bora jamiiki egilgan va bukilgan narsalarga nisbatan “chang” iborasini keng qo‘llash odat tusiga kirib borgan. Jumladan, Ku Tay afsonasida “Qadim zamonda Inchyu shahrida chang toifasida Ku Tay otlig‘ bir bek bor edi...” kabi misrada chang atamasi ostida bekning bukchayib qolgan qomati tushunilgan. Ajdodlarimiz tomonidan bitilgan rivoyatlarda chang iborasi qomati egik ko‘rinishdagi cholg‘uga nisbatan qo‘llanilganini kuzatish mumkin: Iskandar davrida ikki donishmand Arastu va Aflotun yashagan ekan. Shoh ulardan birini (Aflotunni) kuchli olim sifatida tan olardi. Bundan xabar topgan Arastu sahrularga ketib makon topadi. U yerda Arastu ruhi hamisha osmonlarda uchib yurar ekan. Kunlarning birida u uchinchi osmon falagida Zuhro yulduzini (“Nahii falak”) ko‘rib qoladi va uning ko‘z oldida ajib bir surat namoyon bo‘ladi. Arastu bu suratni yuragiga jo‘qilib, yerga tushgach, shu shaklda chang cholg‘usini yasaydi. Bundan xabar topgan Aflotun va shoh, uning (Arastu) oldiga boradilar va g‘ayritabiiy manzaraning guvohi bo‘ladilar: butun borliq sukunatga tushgan, qushlar va yovvoyi hayvonlar chang sadosi ta‘sirida mas uyquda. Aflotun va shoh bu manzaradan hayratga tushganlar. Quyidagi ma‘lumotda o‘tmishda iste‘molda bo‘lgan chang cholg‘usi rezonatori egik ko‘rinishda bo‘lganiga ishora qilingan. O‘rta asr manbalarida chang iborasi nafaqat shaklga, balki musiqa cholg‘usiga nisbatan qo‘llanilganini guvohi bo‘lamiz.

1. “Shohnoma”ning qisqacha lug‘atida chang quyidagicha ta‘rif qilingan: 1) nohun, hayvon panjasi; 2) mashhur musiqa cholg‘usi; 3) changak, changallamoq.

2. Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos ul-lug‘ot”da: “chang – qo‘l barmoqlari; soz nomi; va jamiiki egilgan narsadir; chang so‘zining birinchi belgisini barmoq deb tushungan kishilar xato qilgan bo‘lurlar”. Ya‘ni, olim chang atamasi ostida avvalo musiqa cholg‘usini tushunish lozimligini aytib o‘tib, uni qo‘l barmoqlarining bukilgan holati bilan qiyoslaydi va egik ko‘rinishda bo‘lganiga ishora qiladi.

3. “Xorijiy so‘zlar lug‘ati”da: “chang forscha atama bo‘lib, uning istilohiy ma‘nosi ham “egri, egik”ni, lug‘aviy ma‘nosi: 1) musiqa cholg‘ulari (arfa, lira); 2) qo‘l barmoqlari, kaft; 3) egri, egik; 4) musiqada $1/8$; 5) ilgak, ilintirmoq, chang solmoq ma‘nolarini anglatgan. Sharhlarni tahlil qiladigan bo‘lsak: - musiqa cholg‘ulari (arfa, lira) – o‘tmishda arfa turlaridan birini chang deb atalishi; - qo‘l barmoqlari, kaft - changning tashqi ko‘rinishi qo‘l barmoqlarining bukilgan holatiga o‘xshashligi; - egri ham egik - chang cholg‘usining shakli, ya‘ni tovush kuchaytirib beruvchi rezonator qutining egikligi; - musiqada $1/8$ - keng qamrovli tushuncha. Birinchidan, $1/8$ bu komma, ya‘ni musiqa akustikasida eng kichik tinglab, ajratib bo‘lmaydigan interval (bir butun tonning $1/8$ bo‘lagi). Ikkinchidan, musiqa riyozat ilmi, unda mavjud o‘lchovlar ijroga, shaklga, torga, tovush miqdoriga nisbatan matematik hisob-kitobi asosida amalga oshirilgan. Uchinchidan, $1/8$ o‘lchovi cholg‘u shakliga nisbatan berilgan bo‘lishi mumkin (skripkada $1/8$, $2/4$, $4/4$ kabi). O‘tmishda musiqa cholg‘ulari muayyan bir qolipda yasalmagan, balki mo‘ljallangan marosimga qarab ular turli hajmlarda bo‘lgan. - ilgak, ilintirmoq, chang solmoq – qo‘l barmoqlari bilan cholg‘u torlarini changallab, chertib olish demakdir. Xulosa shuki, o‘rta asr chang cholg‘usi rezonatori egik arfasimon ko‘rinishda bo‘lib, torlari qo‘l barmoqlarida chertib (changallab) ijro qilingan. Chang cholg‘usini ancha takomillashgan ko‘rinishi haqida XVI asrning ikkinchi yarmi XVII asr o‘rtalarida ijod qilgan sozanda, alloma Darvesh Ali Changiy o‘zining “Risolayi musiqiy” asarida bayon etgan. Risola yangi sulolaning ko‘zga ko‘ringan vakili Imomqulixonga bag‘ishlangan bo‘lib, xalq mashshoqlari orasida “Tuhvatussurur” (“Quvonch tuhvalari”) nomi bilan mashhur bo‘lgan. Unda zamonasining musiqa cholg‘ulari, sozandalar hayoti va ijodiga tegishli ma‘lumotlar, hamda tarixiy ahamiyatga molik rivoyatlar yoritib berilgan. Darvesh Ali o‘zining sevimli cholg‘usini “chang-cholg‘ular kelinchagi, soz va nozlar parisidir” - deya ta‘riflab, uni majoziy qiyoslash bilan birga, chang torlari, ijro uslublari, xususiyatlari haqida ma‘lumotlar bergan. A.Semyonov tomondan tarjima qilingan “Sredneaziatskiy traktat o muzike Darvisha Ali (XVIIv.)” asarida “...yetti maqomni ijro etish uchun changning yigirma olti tori va yetti pardasi (ton) bo‘lgan,” risolaning III-bobida (“O‘n ikki maqomning yaratilishi”) “komil sozanda, o‘n ikki maqomni changning o‘ttiz ikki torida, qonunning yigirma to‘rtta mis torida va udning o‘n ikki torida yuksak darajada ijro qilishi lozim”, - deya qayd etilgan.

O‘zbek mumtoz musiqasi, milliy ohanglarimizning umrboqiyiligidagi milliy cholg‘ularimizning o‘rni beqiyos. Aslida har bir o‘zbek milliy cholg‘usining o‘z o‘rni va ahamiyati bor. Har bir cholg‘u borasida izlanishlar olib borish, ilmiy jihatdan o‘rganish, bugungi kunda dolzarb vazifalardan sanaladi. Chang cholg‘usi ham milliy musiqamizda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, uning imkoniyatlarini, tarixini yoshlarimizga o‘rgatish juda muhim. Har bir cholg‘ularimizning milliy musiqamizda tutgan o‘z o‘rni bor. Ba‘zan ular birini to‘ldirsa, ba‘zan birining o‘rnini ikkinchisi bosa olmaydi. O‘zbek milliy cholg‘ulari olami ham ma‘naviy, ham moddiy nuqtai nazardan boy hamda rangbarang ekanligini alohida e‘tirof etish lozim. Qolaversa, cholg‘u ijrochiligi halqimizning boy ma‘naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan san‘at turi bo‘lib, uning tarixiy negizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu sohaning asosi hisoblanmish musiqiy sozlar, xalqning turmushi va mehnat faoliyatiga singib, hayotining ajralmas qismiga aylangan. Barcha musiqa cholg‘ulari kabi qadimgi Chang qachon ixtiro qilingani to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar mavjud emas. Lekin arxeologik qazilmalardan topilgan yodgorliklarda tasvirlangan arfa (chang), bu cholg‘uning qadimiyligidan dalolat beradi. Ularga ko‘ra, bu soz dastlab kichik hajmda tirnab chalinadigan cholg‘u bo‘lib, u o‘zining jarangdorligi va tovush tarovatining boyligi bilan ajralib turgan. Ushbu cholg‘u arab musiqasida “Qonun”, Eronda “Santur”, o‘zbek va tojik an‘analarida “chang” deb nomlangan. Uzoq yillar davomida arfa (chang) cholg‘usining vatani Misr hisoblangan va u qadimgi yodgorliklarda o‘z aksini topgan (eramizdan avv.3000- 2500 yy.). Arfa (Chang) cholg‘usining besh xili, ya‘ni uchta burchakli va ikkita yoysimon ko‘rinishlari mavjud ekanligi mutaxassislar tomonidan isbotlab berilgan. 1940-yili Surxondaryo viloyati, Termiz shahri yaqinidagi Ayritom qo‘rg‘onida arxeologik qazishmalar chog‘ida chang cholg‘usining qadimgi shakli bo‘lgan arfa chalayotgan ayol frizi topilgan. Bu cholg‘u uchburchak ko‘rinishda bo‘lib, o‘n uchta tori bo‘lgan. Tarixchi olim K.Trever qayd etganidek, “Ayritom qo‘rg‘onida

topilgan frizlarning barchasi mahalliy hunarmandlar tomonidan yasalgan va ular eramizdan avvalgi XVIII asrga borib taqaladi”. Shu ma’nodan chang cholg’u ijrochiligi musiqa san’atimizda juda qadimgi tarixga egadir. Chang cholg’usi haqida O’rta asr allomalarining musiqiy risolalarida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, musiqashunoslik fanining asoschisi Abu Nasr Muhammad al-Farobiyning yozishicha bu cholg’u Samarqandlik Xulays ibn Axvas tomonidan So’g’dda ixtiro etilgan bo’lib, so’ngra Bag’dodda va boshqa mamlakatlarda tarqalgan ekan. Umuman “chan” arab, fors va turkiy adabiyotlarda xilma-xil bo’lib, egri, chang, chog’ona, shudurg’u, yaturg’on atamaları ostida berilgan. “Chang” nomini XIII asrda uchramiz. Qutbiddin Sheroziy (XIII asr) “Durrat-ut toj” (Musiqha haqida dur asar) risolasida qonun, nusxa, navxi kabi qadimgi cholg’ular asarida Chang cholg’usini ham tilga olib, “tovushi ochiq torlardan sadolanuvchi cholg’ular” tarkibiga kiritadi. XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida Ozarbayjonning Marog’ shahrida tug’ilgan bo’lsa-da, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida - Samarqandda o’tgan va Hirotda vafot etgan Abduqodir G’oyibiy (Marog’iy)ning “Jama al-alxan fi-ilm al-musiqiy” (Musiqha ilmida ohanglar to’plami) risolasida qonun cholg’usini ta’riflab – cholg’u trapetsiya shaklida yasali sado taraladigan quti, jami yetmish ikkita uchtalik mis simlar tortilib tarang sozlangan, tovushqatori 24 boshqichdan iborat bo’lganligi haqida bayon etadi. XVII asrda yashab ijod qilgan Darvesh Ali Changiyning risolasida nafaqat musiqa nazariyasi, balki turli davr ijrochilari va saroy qoshida keng tarqalgan musiqa cholg’ularidan bo’lgan tanbur, chang, nay va qonun haqida ham to’xtalib o’tadi. Darvesh Ali Changiy changning qadimiy o’tmishi haqida ma’lumot beradi. Uning aytishicha changda 26 ta tor va 7 ta lad bo’lgan. Bu changning 7 ladida 7 maqomni ijro etishgan: 1-laddan “Rost” maqomi boshlangan. 2-laddan “Navo” maqomi boshlangan. 3-laddan “Xijoz” maqomi boshlangan. 4-laddan “Zangula” maqomi boshlangan. 5-laddan “Xusayni” maqomi boshlangan. 6-laddan “Kuchek” maqomi boshlangan. 7-laddan “Iroq” maqomi boshlangan. Lekin usta changchilar ushbu changda 12 maqomni chalishga muvaffaq bo’lganlar. Darvesh Ali ibn Mirzo Ali ibn Xo’ja Maxmud Marvariz shu cholg’uning mohir ijrochisi bo’lgan. U yoshligidan changga mehr qo’ydi va keyinchalik shuhrat qozondi. Shu davrning yana bir mohir changchisi Mavlono Zaynulobiddin Rumiy edi. Darvesh Ali ta’kidlashicha, u juda ko’p peshrav va kuylar ijod qilgan. Ulardan eng ko’zga ko’rinarlisi 3 ta peshrav edi: Birinchisi, Ehson. Husayni maqomining pardalarini o’z ichiga oladi. Ikkinchisi, Soqil. Iroq maqomi pardalari asosida ijod qilingan. Uchinchisi, Peshravi ufor. Husayniy maqomining xonalaridan tarkib topgan. Yana Darvesh Ali Changiy qadimda (changni) kelib chiqishi haqida shunday yozadi: chang qadimiy cholg’u bo’lib, Messopotamiyadan tortib, to Xitoygacha bo’lgan juda katta masofani egallagan. Buxoroda (XVI asr) Shayboniylardan bo’lgan Abdullaxonning zamondoshi Xo’jayi Kalon (Buyuk Xo’ja, shayx xo’ja Sa’d) og’ir dardga giriftor bo’ladi. Tabib Sulton Muhammad uni davolab, kasalini yengishda chang mashqlarini tinglashni tavsiya etadi. Xo’ja Sa’d Darvesh Alini huzuriga chorlaydi. Darvesh Ali uch oy davomida Sa’d qoshida chang chaladi. Xo’ja butunlay tuzalib ketadi. Risolada keltirilgan yana bir rivoyatga ko’ra, qadimda buyuk Nushiravon zamonida (531–579) mashhur changchi Piri Changiy yashagan. Eron arablar qo’liga o’tadi, undan keyin Xalifa Umar Eron musiqasini ta’qib ostiga oladi. Piri Changiy o’zini hech kimga keragi yo’qligidan xafa bo’lib, Madinaga Yasrib qabrini ziyorat qilgani boradi. U o’z yoniga changni qo’yib, nola qila boshlaydi: “Men doimo Sen uchun chaldim, endi meni ta’qib ostiga olishgani uchun Sening oldingga oxirgi marta chalish uchun keldim. Bir narsani sendan so’rayman, ipak torlarimgagina haq berishsa”. Yig’lab va qattiq oh urib, o’zining oxirgi mashqini ijro etadi. Changni boshiga qo’yib uxlab qoladi. Shu vaqt xalifa Umarga g’oyibdan ovoz keladi: “Bizning bir do’stimiz bor, u Yasribning qabri (ustida) yonida. Ul kimsaga xazinadan 700 dinor olib borib ber. Yana zoriqsa, bemalol tashrif buyursin”. Umar 700 dinorni olib, Yasrib qabriga boradi. U yerda Piri Changiydan boshqa kimsa yo’q edi. U hayron bo’lib tursa, Changiy uyg’onib qoladi. Umar unga 700 dinorni beradi va aytadi: “Alloh seni o’ziga do’st deb bildi. Men ham sening do’stingman. Boshingga mushkul ish tushsa, qoshimga kelgin. Sening soz chertishing egamni o’ziga rom etdi”, – deydi. Taniqli fors shoiri Jaloliddin Rumiy (1273-yil) o’zining “Masnaviyi ma’naviy” asarida bu voqeani yoritib bergan. Shuningdek, bu cholg’uning takrorlanmas sifatini o’z davrining buyuk shoirlari Navoiy, Umar

Hayyom, Dehlaviy va b.lar ham asarlarida bayon etganlar. Chang cholg'usi asrlar davomida takomillashib, avlodan-avlodga, ya'ni bizgacha yetib kelgan, musiqiy hayot taqozosi bilan o'zbek xalq cholg'ularini zamonga xos takomillashtirish zaruriyati tug'ildi. 1940-yillarda xalq cholg'ularini yasash va takomillashtirish bo'yicha maxsus ustaxonalar ochildi. Namangandagi musiqa ustaxonasiga taniqli xalq sozandasi Usta Ro'zmat Isaboev (1885-1964) boshchilik qildi. U ijrochilar tomonidan keng qo'llanilgan yarim xromatik changning bir necha nusxasini yasab, tayyorladi. Toshkentdagi ustaxonada mashhur cholg'ular ustasi Usta Usmon Zufarov (1899-1981) ham chang cholg'usining yangi nusxalarini yaratdi. Xorazmda esa mashhur xalq sozandasi, bastakor Matyusuf Xarratov changni takomillashtirish ustida sabot bilan ishladi. Izlanishlar natijasida Matyusuf Xarratov sozandalar Faxriddin Sodiqov, o'z o'g'li Fozil Xarratov va Ahmad Odilovlar bilan hamkorlikda changning yuqori pardalarini qo'shimcha torlar va xarraklar hisobiga kengaytiradi. Ushbu o'zgarishlarni sozandalar ma'qullashadi. Shunday qilib u ijrochilik amaliyotiga tadbiiq etildi. Cholg'uga kiritilgan yana bir yangilik, cholg'u bir oktava ko'tarib sozlashga moslashtirildi. Bu esa changning birmuncha ixchamlashuviga sabab bo'ldi. Chang cholg'usining yangi nusxalarini yaratish San'atshunoslik instituti tasarrufidagi musiqa ustaxonasining ustalari: U.Zufarov, Z.Zokirov, S.E.Didenkolarning zimmalariga yuklanadi. Yangi nusxadagi chang taniqli ijrochi hamda tadqiqodchi – Ashot Ivanovich Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent musiqa bilim yurtida va u rahbarlik qilayotgan O'zbekiston davlat filarmoniyasining o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida sinaldi va ma'qullandi (1943-y.). Natijada chang sozi ta'lim tizimiga kiritildi. Shoakbar Shoakramov, Abdusamat Ilyosov, Ashraf Ashrapov, Mahammadjon Rasulov va Ahmad Odilovlar o'quv dargohida ta'lim olgan birinchi ijrochilardan bo'lishdi va bu ijro uslubi tizimi yo'lga qo'yildi, ko'zlangan maqsad o'z tasdig'ini topdi. O'ziga xos yaratilgan chang cholg'usi tez orada ijrochilik amaliyotida qo'llanila boshladi va keng ommalashdi. Musiqa cholg'ularini yasovchi ustalar chang soziga qalb qo'ri, ko'z nuri va erishgan tajribalarini sarflab, naqshinkor bezakli changlar yasay boshladilar. Changning tovush sifati, sadolanishi va jarangdorligi, tarannum jozibasi ko'p sonli tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb etdi. Bu tipdagi chang cholg'ulari O'zbekiston radiosi cholg'u ansamblida, Muqimiy nomidagi respublika musiqali drama teatrining cholg'ular orkestri jamoasida, O'zbekiston davlat filarmoniyasi tasarrufidagi o'zbek xalq cholg'ulari ansamblari tarkibida o'z o'rnini topdi. Shu bilan birga, chang cholg'usini tizimli tarzda takomillashtirish ishlari to'xtamadi. A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh soz ustalari va sozandalar: Usta Usmon Zufarov, S.E.Didenko, M.Xarratov, A.Odilov, F.Xarratovlar chang cholg'usini yanada takomillashtirishga erishdilar. Ular tovushqator tizimi asosiga xromatik, ya'ni o'n ikki bosqichli ravon oraliqlarga bo'lingan tovushqator qabul qilindi. Pirovardida, kichik oktava "Sol" tovushidan, uchinchi oktava "Mi" tovushigacha diapazon kengaytirildi. Keyinchalik A.Odilov o'z ustozlari A.Petrosyans bilan hamkorlikda nafaqat changning yangi namunasi, balki "Chang ijrochiligi maktabi"ni yaratishga muvaffaq bo'lishdi: birinchidan – cholg'uning tovush jarangdorligi sifati yangilandi, tovush kuchi sezilarli darajada oshdi, tovush diapazoni kengaytirildi; ikkinchidan – mustahkam va sifatli changlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish maqsadida chang yasashning butunlay yangi texnologiyasi joriy etildi; uchinchidan – changning tovush chiqarish yo'llarini to'g'ri aniqlab, ularni ilmiy-nazariy yo'sinda isbotlab, chang ijrochiligini yangi "maktab"ida o'qitishni tadbiiq etish kabi ishlar amalga oshirildi. Changning diapazoni yanada kengaytirilib, uning tovushqatori 2 tonga ko'paytirildi. Yangi chang cholg'usiga tovush so'ndirgich mexanizmi o'rnatildi. O'ng oyoq yordamida tepki (pedal) vositasida tovush so'ndirish uslubi joriy etildi va bu taklif chang ijrochilari va musiqiy jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi, amaliyotga tadbiiq etildi.

O'zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi

san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg'ular eramizdan avvalgi o'n uchinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg'ular qadimgi mehnat qo'shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg'ular paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga hos takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg'ular eng qadimgi cholg'ular turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bog'liq.

Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o'zining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholg'ularning turlari shakllangan. Taniqli olim T.Vizgoning ma'lumotiga ko'ra mudovara (tarelka) harbiy cholg'ular qatoridan ham o'rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham meloddan uch ming yil oldin ma'lum bo'lsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholg'usidek o'z shaklida yetib kelgan. Zarbli cholg'ular - doira, debu, daff, daz, dov, sanj, g'olachalar miloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniyalar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha yetib kelgan. Doyra va sanj cholg'usining tarixi ijro etilish usullari haqida musiqashunos olim T.Vizgo fikr yuritib, sanj cholg'usining o'rtasidan tasma o'tkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karomatov F. "Uzbekskaya instrumentalnaya muzika" Toshkent.; 1972.
2. Petrosyans A.I. "Instrumentovedenie" Toshkent.; 1980. 3. Nosirov R.
3. "Cholg'u ijrochiligi" Toshkent.; 2008. 4. Belyaev V. "Muzikalnie instrumenti Uzbekistana" Moskva.; 1933. 5. Darvesh Ali Changiy.
4. Risolai musiqiy. O'zRFASHI-1, inventar № 468 6. Matyakubov O. Matniyozov A.
5. "XI-XV asrlarda O'zbek musiqasi" Urganch.; 2010. 7. Semyonov A.
6. Sredneaziatskiy traktat po muzike Dervesh-Ali Changi (XVII v.) T., 1946.
7. Trever K. Pamyatniki greko – baktriyskogo iskustva. M.-L., 1940.
8. Akbarov I. Musiqa lug'ati. -T.: 1997. -137 b. 2.
9. Raxmon N. Turk xoqonligi. -T.: 1987. -129 b. 3. D.Rashidova Darvesh Ali Changiy. // Jurnal . Sovet O,zbekistoni san'ati. 10/1978y, -18b. 4.
10. Darvesh Ali Changiyning "Risolai musiqiy" asarining beshta qo'lyozmasi mavjud bo'lib, ulardan №468/1-2, №449, №7005/5 –Toshkentda, №171/1-Tojikistonda, №2002–Leningradda saqlanmoqda. Ushbu risolaning №449 raqamli qo'lyozmasi to'liq ko'rinishda bo'lib, musiqaga oid matni rus tiliga sharqshunos olim A.Semenov, to'liq matni olim D.Rashidova tomonidan tarjima qilingan. № 468 raqamli qo'lyozmani o'zbek tiliga B.Ashurov tarjima qilgan. 5. Muxammad G'iyosiddin. "G'iyos ul-lug'ot" I-tom. – Dushanbe:1987.–265b. 6. Slovar inostrannix slov. -M.: 1982. -56 b.
11. Akbarov I.A. "Muzika lug'ati". G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
12. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE.
13. Jalilova, R. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA QALAMTASVIR TEXNOLOGIYASINI O'QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI. *Scienceandinnovation*, 1(C2),

14. Jalilova, R. (2022). THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART IN PENCIL DRAWING, PAINTING, COMPOSITION AND INDEPENDENT PAINTING. *Science and Innovation, 1*(3),.
15. Jalilova, R. (2022). HEREDITARYDISEASES. *Евразийский журнал академических исследований, 2*(11),
16. Jalilova, R. Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. *Математическое и компьютерное моделирование естественных и социальных проблем: материалы XVIIСерос*, 131.
17. Jalilova, R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History, 18*,
18. Jalilova, R. (2023). EDUCATIONAL METHODOLOGY OF AESTHETIC EDUCATION OF LANDSCAPE PAINTING. *Science and innovation, 2*(C7),
19. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation, 2*(C7),
20. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1*(2), 254-266.
21. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
22. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
23. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *GospodarkaiInnowacje.*, 34,
24. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O ‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34,
25. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN’ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3*(5),
26. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation, 1*(4),
27. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation, 1*(4),
28. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8*,
29. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG ‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2*(10-2),
30. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12*(10).
31. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO‘LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2*(10-2),
32. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE’S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021 ISSN 2456–5083

33. Achildiyeva, M., Xojimatov, A., &Ikromova, F. (2022). Shashmaqomsaboqlari:" Navo" maqomixususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01),
34. Achildiyeva M 2021 Academic YunusRajabi and His Scientific Heristage*Annals of Romanian Society for Cyell Biology* 25(4)
35. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutulipova, M., &Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9),
36. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., &Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6),
37. Achildieva, M., &Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
38. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO‘LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
39. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731
40. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643
41. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
42. Xojimatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
43. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O‘ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O‘RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384
44. Xojimatov A. Atkiyoeva R.“VODIY BULBULI” TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023ISSN:2181-4287
45. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
46. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4)
47. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan BotirUmidjonov*Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683
48. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5)
49. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АЧИИГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИИ" ENGLAND" *MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION* Vol. 10 No. 1 (2023)
50. Xojimatov A The Process of Changes and Depreciation of the Aesthetic Effectiveness of Musical Values under Globalization *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 11 <http://journals.proindex.uz>

51. Achildiyeva, M. Historical Development of Uzbek Musical Art Stages and Ways of Improvement Journal of Creativity in Art and Design *Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024* 20
<http://journals.proindex.uz>
52. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. KATTA ASHULA SAN'ATI SABOQLARI International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 01, January (2024)